



XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 10-aprel

VII-27-97-3-0-K/26

Jizzax viloyati

Jizzax viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlarini (tariflarini) belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi O'RQ-784-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 24-maydagi PQ-257-son qarori, 2018-yil 27-iyuldagi Osiyo Taraqqiyot banki ishtirokida "Jizzax shahrida kanalizatsiya tizimini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3885-sonli qarori, 2018-yil 4-maydagi "Jizzax viloyati aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3695-sonli qarori hamda 2023-yil 2-maydagi "2023-2025-yillarda Jizzax viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-146-sonli qarorlariga asosan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimligining 2026-yil 5-martdagi 02-472-sonli "Jizzax suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining viloyatdagi suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Jizzax viloyatida ma'qullangan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024-yil 15-fevraldagi VI-51-38-3-0-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyat teleradiokanali Davlat muassasasi direktori

E.Shermonov, “Jizzax haqiqati”-“Джизакская правда” gazetasi tahririyati (B.Nazarov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash vazifasi viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Djurayev zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Rahmonqulov zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari Jizzax
viloyati Kengashi raisi**



**UZAKOV
BAYRAMBEK
UZAKOVICH**

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2026-yil 10-apreldagi
VII-27-97-3-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Jizzax viloyatida taklif etilayotgan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari
narxlari (tariflari)**

Xizmat turi	Iste'molchilar	O'lchov birligi	Amaldagi narx (QQS siz so'mda)	Taklif etilayotgan narx (QQS siz so'mda)
<i>Ichimlik suvi</i>	Aholi uchun	1 m3	4 000	4 500
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m3	6 000	10 000
	Ulgurji iste'molchilar uchun	1 m3	6 000	10 000
<i>Oqova suv</i>	Aholi uchun	1 m3	1 700	2 000
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m3	2 500	4 000
	Ulgurji iste'molchilar uchun	1 m3	2 500	4 000